"O'TKIR HOSHIMOV "DUNYONING ISHLARI" QISSASIDA ONA OBRAZINING BADIIY-PSIXOLOGIK TALQINI"

Jumayeva Nodira To'raqul qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistri
Email:jumayeva916@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasida ona obrazining badiiy-psixologik talqini tahlil qilinadi. Asarda ona siymosi milliy va umuminsoniy qadriyatlar ifodasi sifatida yoritilib, uning mehr, sabr, fidoyilik va ma'naviy poklik kabi fazilatlari ochib beriladi. Shuningdek, ona va farzand munosabatlarining ijtimoiy-psixologik jihatlari ham adabiy tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: *ona obrazi, O'tkir Hoshimov, psixologik tahlil, milliy qadriyat, umuminsoniylik, badiiy obraz.*

Аннотация:В данной статье анализируется художественно-психологическая интерпретация образа матери в повести О. Хошимова «Дунёнинг ишлари». Образ матери рассматривается как выражение национальных и общечеловеческих ценностей, раскрываются такие качества, как любовь, терпение, самоотверженность и духовная чистота. Также исследуются социально-психологические аспекты отношений матери и ребёнка.

Ключевые слова: *образ матери, О. Хошимов, психологический анализ, национальные ценности, универсальность, художественный образ.*

Annotation: This article analyzes the artistic and psychological interpretation of the mother image in O'tkir Hoshimov's story "The Affairs of the World". The mother figure is presented as a reflection of national and universal values, highlighting qualities such as love, patience, devotion, and moral purity. The study also explores the socio-psychological aspects of mother–child relationships.

Keywords: mother image, O'tkir Hoshimov, psychological analysis, national values, universality, artistic image.

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi o'zbek adabiyotida ona obrazining eng ta'sirchan badiiy talqinlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Asarda yozuvchi shaxsiy hayotiy kuzatuvlari, davrning ijtimoiy-madaniy muhiti, xalqona tafakkur an'analari hamda milliy qadriyatlarni bir butun estetik tizimda mujassamlashtirgan. Shu bois qissa nafaqat adabiy hodisa, balki insonning hayotga munosabati, shaxsning ruhiy yetilishi, bolalik va ulg'ayish bosqichlari o'rtasidagi ma'naviy bog'liqliklarni anglashga xizmat qiluvchi asar sifatida ham ahamiyatlidir.. Adabiyotshunos Matyoqub Qo'shjonov "Dunyoning ishlari" qissasining poetik tabiatiga alohida e'tibor qaratib, uni "ertakdan boshlanib, ertak ohangida yakunlanadigan asar" sifatida baholaydi. Uning fikricha, "O'tkir asarini ona dilidan chiqib, farzand diliga payvand bo'ladigan ertaklardan boshlagan edi. Qissa esa asrlar davomida million-million bolalarga aytilgan alla bilan tugaydi. Bunda ham katta ma'no mujassam".[4] Ushbu mulohaza asarning kompozitsion qurilishi hamda undagi folklorona poetik qatlamning naqadar muhimligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, qissaning boshlanishi va yakuni orasida ona qalbi bilan farzand qalbini bog'lovchi ma'naviy rishta mavjud.

O‘zbekiston Qahramoni, professor Ozod Sharafiddinov ham Hoshimov ijodining hayotiy asoslarini alohida ta’kidlaydi: “Agar siz uning kitoblarini diqqat bilan o‘qisangiz, ijodi xalq hayoti bilan naqadar uyg‘un ekaniga, sahifalar orasidan nechalab insonlar taqdiri bosh ko‘tarib chiqishiga guvoh bo‘lasiz. Uning yozganlari afsona ham, ertak ham emas — sof haqiqat. Kitobxon unda o‘z otasini, akasini yoki yaqin bir insonini uchratadi. Ularning kurash va mehnatda o‘tgan tarixlariga ro‘baro‘ keladi. Olamdan nom-nishonasiz o‘tgan, ammo shon-sharaf bilan yashagan insonlar ko‘z oldimizda tiriklashadi”[5]. Ushbu baho yozuvchi ijodining bosh mezoni hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirish ekanini tasdiqlaydi.

O‘tkir Hoshimovning o‘zi ham asarning yaratilish mohiyatini quyidagicha izohlaydi: “Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida eng aziz odam – onam siymosi bor. Bundagi odamlarning hammasini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. Faqat ba’zilarning ismi o‘zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihatdan onamga bog‘langan...” Ushbu e’tirof qissaning avtobiografik ildizlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, asar doirasi faqat muallif xotiralari bilan cheklanmay, unda o‘zbek onasi timsoli orqali butun bashariyatga xos onalik mohiyati ifoda etiladi.

Darhaqiqat, qissadagi har bir novella ona obrazining alohida qirrasini ochib beradi. Jumladan, “Alla” hikoyasida muallif bolalik xotiralari orqali allaning umuminsoniy mohiyatini yuksak badiiy umumlashma darajasiga ko‘taradi. Qahramon qirg‘iz ayol aytayotgan allani ham, Sibirlik juvon kuylayotgan allani ham eshitganda o‘z onasining ovozini tuyadi. Bu holat ona mehri millat va makon tanlamasligini anglatadi. Asardagi mashhur falsafiy xulosa aynan shu g‘oyani mujassamlashtiradi: “Ehtimol, dunyoning bir chetida turib bir odam o‘z seviklisiga aytgan dil rozini

dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bir chetida turib bir odam aytgan qo'shiqni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chekkasida turib bir odam aytgan eng oqilona fikrni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Biroq dunyoning bu chekkasida turib ona aytgan allaga dunyoning narigi chekkasidagi go'dak bemalol orom oladi... Balki shuning uchun ham ona – tabiatning eng buyuk ixtirosidir" [1.109-b.].

Yozuvchi bu fikrni "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarida ham davom ettiradi: "Amerika bilan O'zbekiston orasi o'n besh ming chaqirim. Avstraliya bilan Kanada orasi yigirma ming chaqirim. Ammo amerikalik senatorning xotini o'z farzandini o'zbekistonlik dehqonni xotinidan kamroq yaxshi ko'rmaydi. Avstraliyalik aborigen ayol o'z farzandini kanadalik millioner ayoldan ko'proq yaxshi ko'rmaydi"[1:144]. Ushbu mulohaza yozuvchi tafakkurida onalik tuyg'usi millat, hudud va tabaqa chegaralaridan ustun turuvchi umumbashariy qadriyat sifatida talqin etilganini ko'rsatadi.

Shunday qilib, "Dunyoning ishlari" qissasi ona obrazining nafaqat milliy, balki umuminsoniy mohiyatini ochib bergan yuksak badiiy asardir. Unda ona siymosi xotira, mehr, sabr, fidoyilik va hayot bardavomligining ramziga aylanadi. Shu jihatdan mazkur qissa zamonaviy o'zbek nasrida ona obrazining eng mukammal poetik talqinlaridan biri sifatida alohida ilmiy-estetik qimmat kasb etadi.

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasida ona siymosining badiiy-psixologik talqini alohida salmoqqa ega. Asarda onani o'z vaqtida qadrlash, uning mehrini, xizmatini va beminnat fidoyiligini anglash g'oyasi turli hikoyalar orqali izchil ochib beriladi. Jumladan, "Iltijo" hikoyasida farzandning onaga nisbatan beparvoligi, kechikkan pushaymon va vijdon azobi ta'sirchan ifodalanadi.

Onasining "bir marta meni ham kitob qilib yozsang-chi o'g'lim", degan iltijosiga "sizni nimangizni kitob qilaman", deya loqayd javob bergan qahramon keyinchalik qilgan ishidan chin dildan afsus chekadi. Onasining qabri ustida yig'lar ekan, u o'z vaqtida ado etilmagan burchini anglaydi va shunday deydi: "Mana o'sha kitob. Yo'q, uni men yozganim yo'q. Uni siz yozgansiz. Men uni qog'ozga tushirib, odamlarga tarqatdim, xolos. Men uni dunyodagi hamma onalar o'qishini xohlayman. Bilaman, dunyodagi hamma onalar yaxshi. Shundoq bo'lsayam, ularning hammasi sizga o'xshashini xohlayman…"[2:224].

Bu mazmun "Tush" hikoyasida ham davom etadi. Unda farzandning onasi tunlari bedor o'tayotganini vaqtida payqamaganligi, ayni haqiqatni esa faqat onasi vafotidan keyin anglab yetishi ko'rsatiladi. "Men nodon onamning kamuyqu bo'lib qolganiga, yarim kechgacha yuramanmi, tongotar qaytamanmi, onamning chirog'i muttasil lipillab turishiga xo'p ko'nikkan ekanman. Qaysi kuni ishdan keyin moskvalik mehmonlarni aeroportga kuzatib qo'yadigan bo'ldim. Samolyot kechikib uchdi. Yarim kechada uyga qaytsam...hammayoq jimjit. Hamma o'z oromi bilan... Tushimda onam chiroq ko'tarib yurganmish". Ushbu parcha onaning farzandi uchun har qanday mashaqqatga tayyor turishi, ammo o'z dardini hech qachon tilga olmasligi kabi insoniy haqiqatni ochadi.

Shu jihat "Dunyoning ishlari" qissasidagi "Gilam paypoq" hikoyasida yanada teranroq badiiy ifodasini topadi. Hikoya mazmuniga ko'ra, qahramon har yili dam olishdan qaytganda onasiga gilam paypoq olib keladi. Ona esa bu sovg'ani nihoyatda qadrlab, xuddi bebaho tuhfa olgandek quvonadi va farzandini duo qiladi. Ammo farzand onasining oyog'i kasal ekanini, bu holatning ildizi o'zining bolalikdagi beparvo xatti-harakatlariga borib taqalishini biladi. Kichkinaligida tez-tez betob bo'lib yurishi, qishda yaxmalak uchib muz yeyishi, oqibatda esa

isitmalashi onani qattiq tashvishga solgan edi. Ona qo'lidan kelgan barcha chorani ko'radi, samara bo'lmagach, bolani Hoji buvining oldiga olib boradi. Qalin qor ustidan oyoqyalang yugurib yurgan, farzandi uchun jon kuydirgan onaning ko'ziga o'sha paytda o'zining qip-qizil go'shtday bo'lib qolgan oyog'i ko'rinmaydi. Hoji buvi esa keyinchalik: "oyog'ingizni oldirib qo'yibsiz-ku, qarg'aning miyasini chaqib surmasangiz cho'loq bo'lib qolasiz", deya ogohlantiradi. Shundan buyon ona oyog'i kasal bo'lib qoladi, farzand esa har safar unga gilam paypoq olib kelar ekan, aslida uning sog'ayishini emas, o'zining kechikkan vijdonini yupatishga urinadi. Ona esa baribir o'g'lini "mehribon" deb maqtaydi. Kitobning orqa tomonida keltirilgan quyidagi so'zlar esa bu g'oyaviy qatlamni umumlashtirib turadi: "Dunyoda hech bir chegarani tan olmaydigan va quyosh kabi muttasil nur sochib turadigan sehrli kuch bor. Bu – Ona mehri! Alloh Onani shunday yaratgan!" [3:109].

Asarda ona va farzand munosabatlari ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan ham chuqur ochilgan. "Gilam paypoq"dan tortib "Tasalli"gacha bo'lgan hikoyalarda inson ruhiyatidagi eng barqaror haqiqatlardan biri — ona mehrining shartsizligi, farzandning esa bu mehrni ko'pincha kech anglab yetishi badiiy dalillar orqali yoritiladi. Adib ana shu murakkab psixologik munosabatni sodda hayotiy lavhalar vositasida ifodalar ekan, o'quvchini o'z hayoti, o'z onasi oldidagi mas'uliyati haqida qayta o'ylashga undaydi. Shu bois qissaning didaktik qimmati uning estetik kuchidan ajralmagan holda namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, O'tkir Hoshimovning ushbu qissasi ona obrazining o'zbek adabiyotidagi tarixiy shakllanishini zamonaviy badiiy tafakkur asosida qayta talqin qiladi. Undagi ona timsoli Sharq ayoliga xos an'anaviy fazilatlarni saqlagan holda, yangi psixologik, ijtimoiy va estetik ma'nolar bilan boyitilgan. Muallif ona

obrazini nafaqat o'z hayotining markaziy qahramoni, balki jamiyatning ma'naviy taraqqiyotida muhim o'rin tutuvchi kuch sifatida tasvirlaydi. Shu bois "Dunyoning ishlari" faqat badiiy asar emas, balki ma'naviy tarbiya, axloqiy mushohada va insoniy qadriyatlarni anglash maktabi sifatida ham benazir ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hoshimov O. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. — Toshkent: Sharq, 2001. — 144 b.
2. Hoshimov O. Dunyoning ishlari: qissa va hikoyalar. — Toshkent: Sharq, 2005. — 224 b.
3. Hoshimov O. Dunyoning ishlari: qissa va hikoyalar. — Toshkent: Sharq, 2005. — 109 b.
4. Qo'shjonov M. Onaga ta'zim // Qishloq haqiqati. — 1982. — 20 mart. [Elektron resurs]. — Kirish rejimi: tsuull.uz
5. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. — Toshkent: Sharq, 2004. [Elektron resurs]. — Kirish rejimi: https://ziyouz.uz/kutubxona/yangi-kitoblar/ozod-sharafiddinov-ijodni-anglash-baxti/ (murojaat sanasi: 06.05.2026).
6. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.
7. https://www.mamun.uz/bulletin
8. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Xonimova Maryam. (2024). BUYUK ZAMONDOSHLAR, MANGU YASHAGAY. *PEDAGOGS*, *57*(1), 132–138.

9. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.
10. Zafariddin, Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.
11. Farida, X., To'xtayeva, D., Murtazayeva, M., & Abdurahmonova, D. (2025). SAB'AI SAYYOR" DOSTONINING BOBLARI BO'YICHA TAVSIFI. *Shokh Articles Library*, *1*(2).
12. Dilshoda, A. (2025). MUHAMMAD YUSUF IJODINING ADABIYOTIMIZDA TUTGAN O 'RNI. Global Science Review, 1(1), 388-392.
13. Xurramovna, Q. G., & To'raqulovna, D. M. (2025, December). "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDAGI ONOMOSTIK BIRLIKLARNING BADIIY-POETIK AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION.* (Vol. 1, No. 5, pp. 58-61).
14. Saidmuradova, S., & Madina, T. L. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 147-152.